

## GAP VA MATN BIRLIKLARINI O'QITISHDA MILLIY QADRIYATLARGA XOS YONDASHUVLAR

**Baxridinova Nigora Baxtiyor qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

[bahriddinovanigora02@gmail.com](mailto:bahriddinovanigora02@gmail.com), +998 90 598 0475

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gap va matn birliklarini o'qitishda milliy qadriyatlarga xos yondashuvlarning o'rnini va ahamiyati yoritilgan. Til ta'limi jarayonida o'quvchilarga nafaqat grammatik bilimlar, balki xalqimizning tarixiy-madaniy merosi, urf-odatlarini, qadriyatlari asosida shakllangan ma'naviy dunyoqarashini singdirish zarurligi asoslab beriladi. Maqolada gap va matn birliklarini o'qitishda milliy qadriyatlarga xos yondashuvlar orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, odob-axloq, oilaparvarlik, ahillik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirish mumkinligi ilmiy-nazariy va amaliy misollar asosida ochib beriladi. Milliy qadriyatlar asosida mavzuga doir metod, uslub va o'yinlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. "Gap sayohatga chiqdi", "Qo'shnichilik – ming yilchilik", "Hunar – hunardan rizqing unar" kabi milliy-metodik uslublar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari o'zbek tili o'qituvchilari uchun foydali metodik tavsiyalarni beradi hamda filologik ta'limda milliy qadriyatlarga asoslangan innovatsion yondashuvlarning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** gap, matn, qadriyat, qo'shnichilik, hunar, ifoda birliklari, hurmat, darak gap, so'roq gap, buyruq gap, inkor gap, didaktika, maqol, matal, ibora, sharqona tafakkur va hikoyaviylik.

## APPROACHES BASED ON NATIONAL VALUES IN TEACHING SENTENCE AND TEXT UNITS

**Annotation:** This article explores the significance and role of culturally rooted approaches in teaching sentence and text units. It emphasizes the necessity of integrating not only grammatical knowledge but also the spiritual worldview shaped by the historical and cultural heritage, traditions, and values of the Uzbek people into the language teaching process. The article demonstrates, through theoretical and practical examples, that using national values in teaching sentence and text units helps foster students' national identity, patriotism, moral conduct, and respect for family. Methods like "Gap sayohatga chiqdi", "Qo'shnichilik – ming yilchilik", "Hunar – hunardan rizqing unar" are created and used. The findings of the article provide valuable methodological recommendations for Uzbek language teachers and highlight the practical relevance of innovative, value-based approaches in philological education.

**Key words:** sentence, text, value, neighborliness, craft, expression units, respect, declarative sentence, question, imperative sentence, negative sentence, didactics, proverb, saying, phrase, oriental thinking, narrativity.

## ПОДХОДЫ, ОСНОВАННЫЕ НА НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЯХ, В ОБУЧЕНИИ ЕДИНИЦАМ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ТЕКСТА

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение и роль национально ориентированных подходов при обучении синтаксическим и текстовым единицам. Подчеркивается необходимость внедрения в процесс преподавания языка не только грамматических знаний, но и духовного мировоззрения, сформированного на основе историко-культурного наследия, традиций и ценностей узбекского народа. На теоретических и практических примерах показано, что применение национальных ценностей в обучении предложениям и текстам способствует формированию у студентов национального самосознания, патриотизма, нравственности и уважения к семье. “Gap sayohatga chiqdi”, “Qo’shnilik – ming yilchilik”, “Hunar – hunardan rizqing inar” подобные методы были разработаны и внедрены в практику. Результаты статьи представляют собой полезные методические рекомендации для преподавателей узбекского языка и подчеркивают практическую значимость инновационных подходов, основанных на национальных ценностях, в филологическом образовании.

**Ключевые слова:** предложение, текст, ценность, соседство, ремесло, единицы выражения, уважение, повествовательное предложение, вопрос, побудительное предложение, отрицательное предложение, дидактика, пословица, поговорка, выражение, восточное мышление, повествовательность.

### KIRISH

Til o’rganish jarayonida gap va matn birliklarini tushunish va to’g’ri qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbek tili ta’limida bu jarayon milliy qadriyatlar bilan bog’liq holda olib borilsa, nafaqat til bilimi, balki talabalarning madaniy tafakkuri ham shakllanadi. O’zbek tilida gap tuzilishi milliy tafakkurning ifodasi sifatida namoyon bo’ladi. Masalan, o’zbek xalq maqollarida, hikmatli so’zlarida va ertaklarida gap tuzilishi o’ziga xos shakllarga ega bo’lib, ularda odob-axloq qoidalari, hurmat-izzat, donishmandlik kabi qadriyatlar aks etadi. O’zbek tilidagi gap tuzilishini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- 1) So’z tartibi va sintaktik o’ziga xosliklar.

O’zbek tilida odatda egalik–kesimlik tartibi ustuvor hisoblanadi. Bu tartib o’zbek xalqining mantiqiy tafakkurida sabab-bayon ketma-ketligining muhimligini ko’rsatadi. Masalan:

Men bugun yangi kitob sotib oldim.

Biz milliy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz kerak.

Gap tuzilishining bunday xususiyati xalq tafakkurida harakatning natijaviyligi va vaqtning muhim o'rin tutishini anglatadi.

2) Ta'kidlovchi vositalar va ularning milliy tafakkur bilan bog'liqligi.

O'zbek tilida gapda ta'kidlovchi so'zlar yoki birliklar ko'p qo'llanadi. Masalan:  
"Haqiqatan ham, bu juda muhim masala!"

"Darhaqiqat, milliy qadriyatlar bizning boyligimizdir!" Ushbu tuzilishlar milliy tafakkurning ijtimoiy hayotga yo'naltirilganligini, ishonch va dalillar bilan mustahkamlangan fikr yuritishga urg'u berishini ko'rsatadi.

3) Ortiqcha so'zlardan qochish va mazmunning ixcham ifodalanishi.

O'zbek tilining sintaktik tuzilishida ortiqcha so'zlardan qochish, aniq va lo'nda ifodalar ishlatish milliy tafakkurning muhim xususiyatlaridan biridir. Masalan:  
"U bugun kelmaydi" (U bugun kelishi mumkin emas → qisqartirilgan shakli).

4) Milliy qadriyatlarning gap tuzilishiga ta'siri.

O'zbek xalqining qadriyatlari, an'analari va urf-odatlariga gap qurilishida aks etadi:

5) Hurmat ifodalari.

O'zbek tilida hurmat bilan bog'liq gap tuzilmalari keng uchraydi. Ular til madaniyatining muhim qismini tashkil etadi. Masalan:

"Sizni ko'rib xursand bo'ldik" (Hurmat shakli)

"Sizga katta rahmat!" (Minnatdorchilik bildiruvchi gap) Ushbu gaplar o'zbek xalqining hurmat-ehtirom, odamlar o'rtasidagi iliq munosabatlarga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi.

6) Iboralar va maqollar orqali ifoda

O'zbek tilida gap tuzishda xalq maqollari va iboralari keng qo'llaniladi. Bu milliy tafakkurning keng qamrovli va obrazli ekanini ko'rsatadi:

"Ilm – oltin, amal – uning taxti."

"Er yigitning so'zi bir bo'lur." Maqollar o'zbek millatining hikmatli fikrlash qobiliyatini va fikrni lo'nda ifodalash istagini bildiradi.

Matn birliklarini o'rgatish jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish talabalarning lingvistik ko'nikmalarini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy va madaniy tafakkurini ham shakllantiradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi, tarixiy manbalar

va badiiy asarlar matnning milliy xususiyatlarini tushuntirishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlarning matn tuzilishiga ta'siri. Matn tuzilishining o'zbek milliy qadriyatlari bilan bog'liqligi quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

-sharqona tafakkur va hikoyaviylik.

O'zbek matnlarida asosan hikoyaviy uslub keng qo'llaniladi. Bu xalqning og'zaki an'analariga asoslangan tafakkur tarzidan kelib chiqadi. Masalan, xalq dostonlari, rivoyatlar va ertaklar hikoya qilish orqali ma'no yetkazishning muhimligini ko'rsatadi.

-didaktik (o'rgatuvchi) matnlarning ustuvorligi.

O'zbek tilidagi matnlar ko'pincha ma'rifiy xususiyatga ega bo'lib, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni singdirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari yoki Al-Farg'oniyni ilmiy matnlari didaktik yo'nalishda yozilgan bo'lib, xalqning bilimga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Matn tuzilishi milliy tafakkur va qadriyatlarning bevosita aks etishi bo'lib, u xalqning ma'naviy va madaniy merosini saqlab qolish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi matnlarning o'ziga xos jihatlari – hikoyaviylik, didaktik yo'nalish, mantiqiy izchillik va hurmat ifodalari – milliy qadriyatlar bilan bog'liq.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarda til o'qitish jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligi muhim omil sifatida ta'kidlangan. Jumladan, A. Abduazizovning "Matn lingvistikasi" nomli asarida matn birliklarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning mantiqiy va semantik bog'liqligi, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Bu fikrlar milliy qadriyatlar asosida yaratilgan matnlar orqali talabada tafakkur madaniyatini rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Tilshunos olimlardan G'. Rasulov, N. Mahmudov, Sh. Rahmatullaeva kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida gap turlari, ularning kommunikativ vazifalari haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Ayniqsa, buyruq, inkor va so'roq gaplarning didaktik imkoniyatlarini o'rganish, ularni milliy mazmundagi topshiriqlar orqali o'rgatish g'oyasi maqolada asosiy yo'nalish sifatida qabul qilindi. Shuningdek, H. Yo'ldoshev va O. Jo'raev kabi pedagog olimlarning asarlarida didaktik materiallar tarkibiga

milliy ruhdagi matnlarni kiritish orqali o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash samarali yo'l ekanligi ta'kidlanadi. Ularning tadqiqotlarida milliy qadriyatlar — masalan, qo'shnichilik, hunar, hurmat, sharqona tafakkur kabi tushunchalar o'quv materiallari mazmuniga singdirilishi kerakligi qayd etilgan. Xalq og'zaki ijodi (maqol, matal, ertak) asosida til o'rgatish masalalari G'. Boboyorov, M. Qurbonov va boshqa folklorshunos olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Bu jihatlar maqolamizda ifoda birliklarini milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda o'rgatish g'oyasiga tayanadi. Tahlil qilingan adabiyotlar til o'rgatishda nafaqat nazariy bilim, balki milliy ong va qadriyatlarni singdiruvchi metodik yondashuvlar zarurligini ko'rsatadi. Mazkur maqola aynan shu yondashuvlar asosida metodik takliflar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi. Matn tuzilishini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarga milliy qadriyatlarni yanada samarali singdirish mumkin. Shu sababli, matn lingvistik tahlil bilan birga, milliy tafakkurni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida o'rganilishi lozim. Til o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish natijadorlikni oshiradi. Quyidagi metod va texnologiyalar gap va matn birliklarini milliy qadriyatlar asosida singdirishda samarali bo'lishi mumkin:

“Gap sayohatga chiqdi” metodi. Bu metod gap va matn birliklarini o'qitish bilan birga talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni singdirish maqsadida o'tkaziladi. Metod nomlanishining o'ziyoq diqqatni tortadi. Qiziq, gap ham sayohatga chiqar ekan-da. Birinchi bo'lib guruh 5 yoki 6 ta mayda guruhlariga bo'linadilar. Ular kerakli materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. “Sirli quti” dan guruh a'zolari 1 tadan kartochka olishadi. Kartochkalar ichida sayohatni boshlash uchun ya'ni, “Gap sayohatiga yo'l ochish” uchun hikmatli so'z yoki maqollar yozilgan bo'ladi. Misollar:

“Odob boylikdan ustun.”

“Elga yaxshilik qilgan – elidan yaxshilik ko'radi.”

“Ilm egasiga el suyanadi.” Talabalar ushbu maqollar mazmunini tahlil qilishadi va ular asosida asosiy gap tuzishadi. Guruhlar o'zaro bahslashib, eng yaxshi asosiy gapni tanlaydi. O'z sayohat qog'ozlarining tepasiga yozishadi. Bu bosqichda talabalar o'yin mavzusini anglaydi va fikrlash faollashadi. Keyingi

bosqichda guruh a'zolari mavzuga doir birma-bir gaplar yozib davom ettirishadi. 3-bosqichda guruh a'zolari "Sirli gap" – kutilmagan burilishlar qo'shishlari kerak bo'ladi. Bundan maqsad talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va matn qurilishiga yangicha yondashuv kiritish. O'qituvchi "Sirli gap" deb nomlangan yashirin topshiriq beradi. Masalan: "Sizning matningizda kichik qahramon ishtirok etishi kerak." Talabalar matnning muvozanatini buzmasdan qo'shimcha gap qo'shish orqali o'z matnlarini boyitishadi. Misol: Agar maqolda "Elga yaxshilik qilgan – elidan yaxshilik ko'radi" deb yozilgan bo'lsa, talabalar matnga bir qahramonni kiritib, shu qadriyatni amalda tasvirlashga harakat qilishadi. Talabalar matn strukturasiga ijodiy elementlar qo'shish, matn ichida mavzu doirasida o'zgarishlar kiritish va adabiy mahoratlarini oshirish imkoniga ega bo'ladilar. 4-bosqich "Eng yaxshi notiq" – jamoaviy himoya qilish kerak bo'ladi. Bundan maqsad talabalar o'z matnlarini auditoriya oldida taqdim etishni o'rganishadi. Har bir guruh o'z matnini eng yaxshi ifodalovchi talabani tanlaydi. Ushbu talaba matnni intonatsiya, urg'u va grammatik tuzilish nuqtai nazaridan chiroyli qilib o'qib berishi kerak. Qolgan guruhlar notqlik san'ati bo'yicha fikr bildiradilar va o'z fikrlarini mantiqiy asoslab berishadi. Talabalar og'zaki nutqni rivojlantirish, matnni o'qish va tushuntirish ko'nikmalarini oshirish hamda bahs-munozara madaniyatini o'rganishadi.

Bu metod orqali:

- 1) Talabalar gap va matn birliklarining bog'lanishini mustahkam o'rganadi.
- 2) Milliy qadriyatlar asosida matn tuzish bo'yicha ijodiy tafakkuri rivojlanadi.
- 3) Jamoaviy ishlash, munozara olib borish, va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

"Qo'shnichilik – mingyilchilik" metodi. O'zbek xalqining boy ma'naviy merosida qo'shnichilik munosabatlari alohida o'rin egallaydi. "Qo'shnichilik – ming yilchilik" degan purma'no maqol ham xalqimizning bu boradagi qarashlarini chuqur ifodalaydi. Bu ibora bejiz aytilmagan – u o'zida yillar, asrlar davomida shakllangan hayotiy tajriba va donishmandlikni mujassam etgan. Yaxshi qo'shni – mo'min-qo'shni. Inson o'z tanish-bilishlari, qarindoshlari bilan uzoq masofada bo'lishi mumkin, biroq qo'shnisi har doim yonida. Shuning uchun, har qanday vaziyatda qo'shnining yordami, madadi, quvonchi va tashvishiga sherik bo'lishi beqiyos

qadrlanadi. Shu bois xalq orasida “Avval qo’shni, keyin uy ol” degan naql ham keng tarqalgan. O’zbek mahalla hayotida qo’shnychilik rishtalari juda muhim o’rinda turadi. Har bir xonadon boshqa xonadonlar bilan o’zaro ahillikda, hamjihatlikda yashashga intiladi. Qo’shni to’y qilsa, qo’shni unga yelkadosh bo’ladi; musibat kelsa, birinchi yordamga shoshiladigan ham qo’shni bo’ladi. Hatto ayrim holatlarda ota-ona yetib bora olmagan joyga qo’shni yetib boradi, dardga malham, quvonchga sherik bo’ladi. “Qo’shnychilik ming yilchilik” maqoli qo’shnilar o’rtasidagi yaxshi munosabatlarning uzoq davom etishi va muhimligini ifodalaydi. Bu degani, qo’shnychilik faqat bir kunga yoki qisqa muddatga emas, balki ming yilga tatigulik qadriyat hisoblanadi. Yaxshi qo’shnychilik – do’stlik, yordam, hurmat va hamjihatlikni anglatadi. Ular orasida oldi-berdi munosabatlari bo’ladi. Chunki ular bir kuni voyaga yetib, bir oilaga bosh-u qosh bo’lishadi. Bu metod talabalarga qo’shnychilik an’analari ham qadriyatlarimizdan biri ekanligini tushuntirish va u asosida gap turlarni o’rgatishga asoslanadi. Quyida bu metodimizning jadvaldagi ko’rinishi va qisqacha izohi berilgan:

| Qo’shnilar | “Tinchlik” mahallasi                                          | “Maqsad” mahallasi                                                  | “Do’stlik” mahallasi                                                                                      |
|------------|---------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-qo’shni  | Xalqimiz orasida “Qo’shning tinch-sen tinch” degan maqol bor. | Har bir inson hayotda o’z oldiga maqsad qo’yishi kerak.             | Do’stlik – inson uchun bebaho ne’matlardan biridir.                                                       |
| 2-qo’shni  | Albatta, bu maqol o’ziga xos ma’noga egadir.                  | Maqsadsiz yashash odamni hech qayerga yetaklamaydi, shunday emasmi? | Chin do’st har doim yoningda bo’lib, yaxshi kuningda quvonadi, og’ir damlaringda esa qo’llab-quvvatlaydi. |

|           |                                                                                                                                             |                                                                                            |                                                                                            |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| 3-qo'shni | Maqolning ma'nosi shundaki, insonning hayoti va osoyishtaligi ko'p jihatdan qo'shnilarining xulq-atvori, muomalasi va munosabatiga bog'liq. | Shuning uchun o'z oldimizga aniq maqsadlar qo'yib, ularga erishish uchun harakat qilaylik! | Do'stlar o'rtasidagi ishonch va hurmat mustahkam bo'lsa, munosabatlar bardavom bo'ladi.    |
| 4-qo'shni | Agar qo'shnilar o'zaro ahil, mehribon va hurmatli bo'lsalar, inson ham tinch va farovon hayot kechiradi.                                    | Va bu yo'lda qanday qiyinchiliklarga duch kelsak ham ularni yengishga urinaylik.           | Hech qachon do'stlikni mayda gaplar yoki kelishmovchiliklar sabab yo'qotmaslik kerak.      |
| 5-qo'shni | Qo'shnilar o'rtasidagi do'stona munosabatlar hamjihatlikni mustahkamlaydi.                                                                  | Aniq maqsadi, rejasi yo'q insonlar qolipsiz g'ishtga qiyos etiladi.                        | Agar inson do'stiga sodiq bo'lsa, u ham javob tariqasida sadoqat ko'rsatadi.               |
| 6-qo'shni | Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari tinch-totuv yashashning garovidir.                                                                       | Zero, qat'iyat bilan harakat qilgan kishi albatta o'z niyatiga yetadi.                     | Hayotda chin do'st topish oson emas, lekin uni qadrlash va asrash har kimning o'z qo'lida. |

Talabalar oltita guruhga bo'linadilar. Ularni mahallalar deb hisoblaymiz hamda ular o'zlariga nom topishadi. Ular bir-birlariga qo'shni bo'lishadi. Qo'shnilar bir – birlariga endi biror buyum yoki ovqat emas, gap taqdim etishadi. 3ta guruhga ham bir xilda o'qituvchi tomonidan varoq taqdim etiladi. Guruhlarning birinchi a'zolari, ya'ni, 1-qo'shni varoqqa xohlagan gapini yozadi va 2-qo'shniga uzatadi. 2-qo'shni avvalgi gapni o'qib, uning mazmuniga xos, davomiy tarzda yana gap yozadi. 3-qo'shni esa, o'zidan oldingi gaplarni o'qib, mazmun jihatidan bog'liq bo'lgan o'zining gapini yozadi. Shunday qilib, guruhdagi barcha qo'shnilar varoqqa o'zlarining gaplarini yozib chiqishadi. Eng so'nggida varoq 1-qo'shni qo'lga yetib keladi va u hosil bo'lgan matnga sarlavha topadi. Shunday qilib qo'shnichilik aloqalari davom etaveradi.

**“Hunar-hunardan rizqing unar”** metodi. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ibratli hayot tajribasini o'zida jamlagan maqollardan biri – “Hunar – hunardan rizqing unar” degan naqlidir. Bu purhikmat ibora inson hayotida hunarning, ya'ni kasb va san'atning naqadar muhim ekanligini chuqur ifodalaydi. Chunki hunar egasi hech qachon xor bo'lmaydi, u doimo o'z mehnati bilan halol rizq topadi, jamiyatda munosib o'rin egallaydi. Yurtimizda qadimdan har bir ota o'g'liga, ona qiziga hunar o'rgatishga harakat qilgan. Naql bo'yicha, bir ota bolasiga mol-dunyo emas, balki hunar qoldirsa, farzand hech qachon muhtoj bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatda ishbilarmon, tadbirkor, hunarmand yoshlar safining kengayib borayotgani – milliy rivojlanishimizga xizmat qilmoqda. Hunarmandchilik o'zbek milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Hunarli insonning rizqi ulug' bo'ladi. O'z mehnati evaziga halol non topadi ular. Haqiqatdan ham o'z hunari yoki o'z kasbi bo'lgan insonlar hayotda qiyin vaziyatlarda qiynalmay, oson chiqib ketishadi. Bu metodning vazifasi ham o'quvchilarda ham gap turlarini o'qitish ham shu qadriyat bo'yicha tushunchalar berish. O'quvchilarni biror bir hunar egasi bo'lishga chorlashdir.

Bilamizki, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gaplar, so'roq gaplar, buyruq-istak gaplar hamda undov gaplar hisoblanadi. Shu gap turlarini o'rgatishda va mustahkamlashda biz aynan shu metoddan foydalanamiz. Metodning jadvaldagi aksi va izohi quyidagicha:

|               | 1-o'quvchi                                                | 2-o'quvchi                                                          | 3-o'quvchi                                                                                  | 4-o'quvchi                                                 | 5-o'quvchi                                                         |
|---------------|-----------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| Kasb-hunarlar | Tikuvchilik                                               | Oshpazlik                                                           | Quruvchilik                                                                                 | Shifokorlik                                                | O'qituvchilik                                                      |
| Darak gap     | Tikuvchi milliy liboslarni did bilan tikadi.              | Oshpaz yangi retsept asosida mazali taom tayyorlaydi.               | Quruvchilar zamonaviy asbob-uskunalar yordamida mustahkam va ishonchli binolar qurishyapti. | Yurtimizda shifokorlar qadri ulug'dir.                     | Kasblarning eng ulug'i-o'qituvchilik.                              |
| So'roq gap    | Sizning kiyimingizni tajribali tikuvchi tikdimi?          | Bu taomni oshpaz qanday pishirdi?                                   | Bunday baland imoratni kim qurgan?                                                          | Haqiqiy shifokor bo'lish uchun necha yillik tajriba kerak? | Sizning eng sevimli o'qituvchingiz kim?                            |
| Buyruq gap    | Matoni ehtiyotkorlik bilan kesing!                        | Iltimos, idishlarni darhol yuvib chiqing!                           | Rejadagi barcha inshootlar yil yakuniga qadar qurib bitkazilsin!                            | Shifokorlar, o'z bemorlaringiz haqida ma'lumot beringlar.  | Hamma darsga tayyor tursin!                                        |
| Istak gap     | Kelayotgan bayramga chiroyli atlas ko'ylak tiktirsam edi. | Qaniydi men oshpaz bo'lsam, sog'lom va lazzatli ovqatlar pishirsam. | Qaniydi barcha orzu qiladigan binolar qursam.                                               | Ko'zimni yumsam-u, oppoq formada shifokorga aylansam.      | Kelajak avlodga bilim beradigan fidoyi o'qituvchilar ko'paysa edi. |

O'quvchilarga o'zbek kasb-hunarlaridan birini tanlash kerakliklari aytiladi. Bunda o'quvchilar bilan umumiy ishlanadi. O'quvchilar o'zlari xohlagan hunar turini tanlaydilar. Keyingi talab qilinadigan vazifa: o'quvchilar o'zlari tanlagan hunarga oid gap tuzishlari kerak. Ularni 4 ta turda ifodalashlari ham shart bo'ladi. Shu tarzda har bir o'quvchidan o'zi yozgan kasbga oid gaplarni o'qib berishi so'raladi. Va o'qish jarayonida agar xato va kamchiliklari bor bo'lsa, qolgan o'quvchilar oldida tuzatiladi. Ushbu metod gap turlarini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash jihatidan samarali hisoblanadi. O'quvchilar gap turlarini faqat qoidalar asosida emas, balki real hayotiy misollar orqali o'zlashtiradi. Har bir hunar yoki kasb asosida gap tuzish o'quvchilarga tilning amaliy qo'llanilishini tushunishga yordam beradi. Masalan, tikuvchilik haqida gap turlari tuzishda nafaqat grammatik bilimlar, balki milliy kiyimlar va hunar an'analari haqida ham tushuncha shakllanadi. O'quvchilar o'zlari tanlagan hunar bo'yicha gaplar tuzib, uni grammatik jihatdan tahlil qiladi, bu esa ularning fikrlash va analiz qilish qobiliyatini shakllantiradi. Metod orqali mehnat madaniyati, hunarga hurmat va milliy an'analar haqida tushunchalar beriladi. O'quvchilar "Hunar – insonning boyligi", "Mehnat qilib topilgan non shirin" kabi milliy tushunchalarni o'z nutqida qo'llay boshlaydi. O'zbek xalqining an'anaviy hunarlari haqida gap tuzish jarayonida til va madaniyat o'zaro uyg'un holda o'rganiladi. O'quvchilar ushbu metod orqali kelajakda qaysi kasbni tanlash haqida fikr yuritadi. O'zbek xalqining an'anaviy hunarlari haqida gap tuzish jarayonida til va madaniyat o'zaro uyg'un holda o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotlar orqali ularning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi va kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga yordam beradi. "Hunar – hunardan rizqing unar" metodi o'quvchilarga til va milliy qadriyatlarni uyg'un holda o'rgatish, o'z fikrlarini grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash, til boyligini oshirish va milliy hunarlarga qiziqishini kuchaytirish jihatidan yuqori samaradorlikka ega.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar quyidagi natijalarni berdi:

1. Gap va matn birliklarini o'qitishda milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar o'quvchilarda til materiallarini yanada chuqurroq tushunishga, ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay olishiga xizmat qildi.
2. Milliy qadriyatlar (hurmat, qo'shnichilik, hunar, oilaparastlik, odob-axloq va boshqalar) asosida tuzilgan topshiriq va mashqlar o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.
3. Matn tahliliga asoslangan mashg'ulotlarda maqol, matal, ibora va ertak kabi xalq og'zaki ijodi elementlarining qo'llanilishi o'quvchilarning nutq boyligini oshirdi.
4. So'roq, darak, buyruq va inkor gaplar bo'yicha berilgan mashqlar, ularni milliy kontekstda tahlil qilish orqali til me'yorlariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi.
5. O'qitish jarayonida milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hikoyaviy matnlardan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va ifoda imkoniyatlari rivojlandi.

Gap va matn birliklarini o'rgatishda milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar nafaqat til ta'limining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham xizmat qiladi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, bu yondashuv o'quvchini o'z milliy ildizlariga bog'laydi, o'zligiga hurmat, xalqiga mehr uyg'otadi. Tadqiqot davomida kuzatilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, milliy mazmundagi matnlar bilan ishlash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ular o'z fikrini erkin ifodalashni, adabiy-nutqiy vositalardan to'g'ri foydalanishni o'rganadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish o'quvchilarda tilga nisbatan estetik va madaniy munosabatni shakllantiradi. Bu esa bugungi til o'qitish jarayonida yangicha, innovatsion yondashuvlar zarurligini yana bir bor isbotlaydi. Milliy qadriyatlarga asoslangan metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni mustahkamlab, til o'rganishni hayotiy ehtiyojga aylantiradi.

### XULOSA

Gap va matn birliklarini o'rgatishda milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar bugungi filologik ta'limda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bunday yondashuvlar til o'rganish jarayonini nafaqat samaraliroq qiladi, balki talabalarda milliy o'zlik, ma'naviy madaniyat, axloqiy qadriyatlarni singdirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi

namunalari – maqol, matal, ibora, ertaklar asosida yaratilgan mashqlar, shuningdek, gap turlarining (darak, so'roq, buyruq, inkor) milliy kontekstda tahlili o'quvchilarning nutqiy faolligini, ijodiy fikrlashini va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Milliy qadriyatlarga tayanilgan didaktik materiallar o'quvchilarni ona tiliga muhabbat, xalqiga hurmat, urf-odat va an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Shu bois, o'zbek tili ta'limida milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yanada keng qo'llanilishi va takomillashtirilishi zarur. Bu nafaqat til bilimlarini chuqurlashtiradi, balki har bir yosh avlod vakilining komil shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdualazizov A. Matn lingvistikasi. — Toshkent: Fan, 2008.
2. Baxridinova N. B. Tovushlar tasnifini o'qitishda milliy qadriyatlarga tayanish // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2025. Volume 37(2). — B. 35-44.
3. Baxridinova N. B. Milliy qadriyatlarning tilshunoslikka oid fanlarni o'qitishda tutgan o'рни // Образование наука и инновационные идеи в мире. 05.05.2024. Volume 44(2). — B. 189-191.
4. Baxridinova N. B. Talabalarga til ta'limini berishda milliy qadriyatlarning o'рни // Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Chirchiq – 04. 23-24.2024. Part 3. — B. 824- 827.
5. Baxridinova N. B. Fonetik o'zgarishlar, urg'u va bo'g'inni milliy qadriyatlar asosida o'rgatish // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. 2025. Volume 5(1). — B. 434-439.
6. Baxridinova N. B. So'z ma'nolarini o'rgatishda milliy qadriyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. 2025. Volume 39(2). — B. 193-200.
7. Baxridinova N. B. Milliy qadriyatlar asosida so'z birikmalarini o'qitish metodlari // Journal of Analytical Synergy and Scientific Horizon. 2025. Volume 1(1). — B. 78-86.
8. Boboyorov G'. Xalq og'zaki ijodi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2002.
9. Jo'raev O. Milliy qadriyatlar va ta'lim tarbiyada ularning roli. — Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
10. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2006.
11. Qurbonov M. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. — Toshkent: Fan, 2012.
12. Rahmatullaeva Sh. Gap turlari va ularning o'rganish usullari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
13. Rasulov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksisi. — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
14. Yo'ldoshev H. Didaktika asoslari. — Toshkent: Fan, 2010.